

## ARAB XALIFALIGI POYTAXTI BAG'DOD SHAHRINING ILMIY MARKAZ SIFATIDA SHAKLLANISHI

**Uralov Xaitboy Abdujabborovich**

*Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi.*

*Abdug'affarova Muxlisa Jizzax davlat pedagogika universiteti talabasi*

[xaitboyuralov@gmail.com](mailto:xaitboyuralov@gmail.com) Telefon: +998(94)161-62-77

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolaning mazmuni shundan iboratki, Bag'dod shahri asrlar davomida islom olamining ilm-fan, madaniyat va savdo markazi bo'lganligi, bir necha asrlar davomida Abbosiylar poytaxti bo'lib xizmat qilganligi, yirik ilm-fan o'chog'i bo'lgan "Bayt ul-hikma"ni ham aynan Bag'dod shahrida qad rostlagani Bag'dod shahrining manbalarda turlicha nomlar bilan keltirilganligi, aholisining etnik tarkibi, urf -odatlarini tuzulishi, ushbu hududdan oqib o'tuvchi Dajla va Frot haqida ma'lumotlar aks etgan, shuningdek islom olamidagi eng strategik ahamiyatga ega bo'lgan hudud ekanligi ilmfanning rivoj topishini kabi ma'lumotlar qayd etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *"Bayt ul-hikma", Markaziy Osiyo, Umaviylar, Abbosiylar, Bag'dod, Hatib Bag'dodiy, Bobil, Misr, Qohira, Hijoz, Abu-Bakr, Usmon, Qu'ron, Dajla va Furot, "Madinat as-Salom", Nil, Sayhun, Jayhun.*

Bag'dod shahri asrlar davomida islom olamining ilm-fan, madaniyat va savdo markazi bo'lgan. Bir necha asrlar davomida Abbosiylar poytaxti bo'lib xizmat qilgan. Yirik ilm-fan o'chog'i bo'lgan "Bayt ul-hikma"ni ham aynan Bag'dod shahrida qad rostlagan. Bu ilm maskanida turli yurt olimlari faoliyat ko'rsatgan, jumladan Markaziy Osiyolik olimlarning ham o'rnini benihoya kattadir. Bag'dod shahrining vujudga kelishi va Umaviylardan so'ng xalifalik taxtiga o'tirgan Abbosiylar shaharga poytaxt maqomi berganligi, uning boshqa shaharlarga qaraganda yanada ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi. Bag'dod shahri xususida ko'plab tarixchilar kitob yozganlar. Ayniqsa, shaharning kelib chiqishi va joylashish o'rniga oid ko'plab ma'lumotlarni o'z asarlarida yozib qoldirganlar<sup>17</sup>. Shu jumladan, Hatib Bag'dodiyning "Tarixi Bag'dod" asari shular sirasiga kiradi. Unda Bag'dod shahri, bozorlari, uning yetti iqlimning to'rtinchi iqlimda joylashganligi va shahar nomining kelib chiqish etimologiyasi haqida so'z yuritiladi<sup>18</sup>. Bag'dod<sup>19</sup> shahri nomining kelib chiqishi bo'yicha bir qancha qarashlar mavjud bo'lib, dastlab bu nom ossuriy mixxat

<sup>17</sup> Густерин П. В. Города Арабского Востока. – Москва: Восток-Запад, 2007. – С. 15.

<sup>18</sup> Hatib Bag'dodiy. Tarixi Bag'dod. – Qohira: 1-tom. 2016. – B. 70.

<sup>19</sup> <https://mathshistory.st-andrews.ac.uk/Map/#Baghdad>

**Yerning yetti iqlim ekanligi, uning qismlari va undan Bag‘dod joylashgan iqlim haqida.** O‘tgan zamonda yashab ijod etgan olimlarning zikr qilishicha, yer yetti iqlimdan iborat. Bu iqlimlarning barchasi go‘yoki bir doira shaklida joylashgan. Ulardan bittasi markazda qolgan oltitasi esa uning atrofidadir. Markazdagi iqlim Bobil iqlimi bo‘lib, qolgan olti iqlim uni o‘rab turadi. Ulardan birinchi iqlim hind shaharlari iqlimi, ikkinchi iqlim Hijoz iqlimi, uchinchi iqlim Misr iqlimi, to‘rtinchi iqlim Bobil iqlimidir. U yerning o‘rtasidadir. Unda Arab jazirasi va yerning surati bo‘lgan Iroq joylashgan. Bu iqlimning chegarasi Hijoz va Najd tarafdin Makka yo‘li bilan, Shom tarafdin Nasibin shahri bilan, Xuroson tarafdin Balx shahri bilan va Hindiston tarafdin to‘qqiz farsax masofa bilan Dubayl shahri bilan chegaralanadi. Bag‘dod shu iqlimning markazida joylashgan. Beshinchi iqlim Rum va Shom shaharlari iqlimi, oltinchi iqlim turk shaharlari iqlimi, yettinchi iqlim

**Bag‘dod so‘zining kelib chiqishi haqida.** Bag‘dod so‘zining kelib chiqishi haqida quyidagi fikrlar bor: Albatta, Bag‘dod forscha bo‘lib, u Kisro uchun qarorgoh sifatida qurilgan. U ikki qismdan tashkil topgan. Ularning Bag‘ ismli ibodatxonasi bo‘lib, unga dod qo‘shimchasi qo‘shilgan. Faqihlar bu nomni yomon ko‘rganliklari uchun, Abu Ja‘far Mansur uni “مدينة السلام” (“Madinat as-Salom”) deb nomlagan. Shuning uchun Dajla atrofi Salom vodiysi deyiladi. Bir kishi Abdulaziz ibn Abi Ruvvoddan Bag‘dod so‘zining ma‘nosi haqida so‘radi. U : “Bag‘ ibodatxona dod unga qo‘shilgan dedi”. Abdulloh ibn Muborak aytadiki: “Zol bilan bag‘doz deyilmaydi, Bag‘ ibodatxonadir, doz unga qo‘shilgan, bu shirkdir. Lekin arablar aytganidek Bag‘dod va Bag‘don deyiladi.” Asmaiy Bag‘doz deb aytar edi, so‘ng undan qaytardi. Shundan so‘ng u “Madinatus-salom” deb aytdi. Chunki u “Bag‘ forscha ibodatxona doz unga qo‘shilgan” degan so‘zni eshitgan edi. Asmaiydan yana aytiladiki, “Bu shahar Bag‘doz, Bag‘dod, Mag‘don, Bag‘don deyiladi. Yahyo ibn Ziyod aytadiki: “Bag‘dod bo va dol bilan, Bag‘don avvalda bo oxirida nun bilan, Mag‘don avvalda mo oxirida nun bilan, bularning barchasi ibodatxona yoki podshoh nomiga qo‘yilgan”. Muhammad ibn Qosim Al-Anboriy aytadi: “Bag‘doz asli forscha, Lekin arablar bu so‘z o‘z tillaridan bo‘lmagani uchun uni turlicha aytadilar. Ba’zi ajamlar uni arabchada tushuntirganda “kishining bog‘i” Bag‘-bog‘ doz esa kishi deydilar. Yana ba’zi forslarning aytishicha, Bag‘ ibodatxona, doz esa kishining nomi. Shuning uchun bir guruh faqihlar bu nomni yomon ko‘rib, Dajlaga yaqin bo‘lganligi uchun “Madinat as-Salom” deb nomlaydilar. Dajla salom(tinchlik) qasri deb ham nomlangan. Ba’zi arablar bu shaharni Bag‘doz va Bag‘dod deb ham ataydilar. Bu ikki so‘z arab tilida keng tarqalgan”. Bag‘dod shahri haqida she’rlarda ham aytilgan. Abu Bakr al-Maxzumiy o‘z she’rining bir qismida “Uning manzili begona shahar Bag‘dod bo‘ldi” deb aytgan. Ya‘qub ibn Sikkat she’rida aytadi: “Qasamki, Hoshim bo‘lmaganda Bag‘donda firqa bo‘lmasdi”.Yana boshqa she’rda:

“Bag‘donda tun uzun bo‘ldi. Tongdan darak yo‘q” – deyiladi. Yana bir she‘rda: “Ey qarg‘a nechuk Bag‘donda to‘xtading, parvoz qil albatta sen haqsan” – deyiladi.

Abu Ikrit aytadi: “Bag‘dod iqomat uyidir unda kunduzdan darak yo‘q”. Ibn Bishron aytadi: “Ba‘zi o‘rinlarda Bag‘doz so‘zida ajamiy zol bilan aytiladi”. Lahyoniy o‘quv markaziga aylandi. Hatib Bag‘dodiy yozadi: “Butun dunyoda o‘zining ulug‘vorligi, olimlari va mashhur kishilarining soni bo‘yicha Bag‘doddek shahar yo‘q edi. Abu Jafar Bag‘dodda barcha shahar va mamlakatlardan olimlarni to‘pladi. Shunday qilib, Abbosiylar xalifaligi davrida Bag‘dod dunyoning onasi, barcha shaharlarning xo‘jayini va sivilizatsiya beshigi bo‘ldi. Qisqa vaqt ichida esa shahar aholisi ikki milliondan oshdi”<sup>20</sup>. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy aytadiki: “Albatta Abu Ja‘far hoshimiylardan Bag‘dodga ko‘chib o‘tgan hukmdordir. Uni qurishni buyurdi, so‘ng 144/761-yili Kufaga qaytdi. 146/763-yili uning qurilishi tugaganidan so‘ng, Abu Ja‘far o‘z qo‘shini bilan keldi va uni “Madinat as-Salom” deb nomladi”. Yana Xorazmiy deydi: “Bag‘dod devori va uning barcha ishlari 148/765-yilda nihoyasiga Bu yerda hunarmandchilik ishlab chiqarish va boshqa mamlakatlar bilan savdo juda tez va muvaffaqiyatli rivojlandi. Bog‘dodga Arabiston, Hindiston va uzoq Yevropa davlatlaridan turli xil mahsulotlar va qimmatbaho buyumlar kelgan. IX asr oxirida arab olimi Ibn-Xurdodbeh tomonidan tuzilgan tarixiy hujjatlarda Bog‘dodning rus savdogarlari bilan savdo aloqalari haqida so‘z yuritilgan. Abbosiylar hukmronligi davrida (VIII-XIII asrlar) Bag‘dod arablar xalifaligining poytaxti bo‘lgan<sup>21</sup>. Abbosiylar davlati qulaganidan keyin shaharning siyosiy va ma‘muriy roli sezilarli darajada pasayib ketdi, ammo uning madaniy ahamiyati barcha arab mamlakatlari uchun juda muhim bo‘lib qoldi. Bog‘dod tezda yirik ilmiy markaz maqomini oldi. XIII asrning boshlarida bu yerda 30 dan ortiq kutubxonalar ochildi. 945-yilda shahar Buyidlar sulolasining mulkiga aylandi, 1055-yildan buyon Saljuqiylar davlati hududida edi va 1258-yilda Xon Xulagu qo‘shinlari Bag‘dodga bostirib kirib, shaharni vayron qildi. Bog‘dod eronlik Ilxoniylar nazorati ostiga o‘tdi. 1356-yildan 1411-yilgacha Bag‘dod mo‘g‘ullar sulolasining Jaloiriylar sultonligi viloyatining markazi bo‘lgan. XIV oxirlarida, so‘ngra XV asrning boshlarida Bag‘dodga Amir Temur qo‘shinlari kirdi va 1393-1405 yillar oralig‘ida Bag‘dod Temuriylar imperiyasining bir qismi edi. 1411-yildan 1469-yilgacha Bag‘dod Qoraquyinlilar Sultonligi viloyatining markazi bo‘lgan. 1469-yildan 1508-yilgacha Bag‘dod Oqquyinlilar sulolasi davlatining markazi bo‘lgan. 1508-yildan 1523-yilgacha Bag‘dod Safaviylar sulolasi davlatining viloyatining markazi bo‘lgan. 1523-yildan 1529-yilgacha Bag‘dodni kurdlar boshqargan. 1529-yildan 1534-yilgacha Bag‘dod yana Safaviylar davlatining viloyatining

<sup>20</sup> <https://islamdag.ru/istoriya/50424>

<sup>21</sup> Багдад, город // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона : в 86 т. (82 т. и 4 доп.). – Санкт-Петербург: 1907. – С. 16.

markazi bo‘lgan.1535-yilda 1514-1555-yillardagi turk-fors urushi natijasida.Bog‘dod Usmonli imperiyasiga qo‘shildi.1623-1638-yillarda yana bir turk-fors urushi natijasida Bag‘dod yana Safaviylar nazorati ostida bo‘lgan, ammo 1638-yildan Bag‘dod 1917-yilgacha bo‘lgan Usmonli imperiyasiga qo‘shib qo‘yilgan<sup>22</sup>.Xulosa qilib aytganda, Bag‘dod shahar rejada aylana shaklida bo‘lgani uchun uni “Madina al-Mudavvara” – “shahar-davradi” deb atalgan. Keyinchalik qurilish tugagandan so‘ng xalifa Mansur poytaxtga “Madinat as-Salom” – “Tinchlik shahri” nomini bergan. Biroq, u foydalanishda mustahkamlangan va bizning davrimizga arablardan oldin kelgan nomi Bag‘dod deya atalgan. Bag‘dod shahri Abbosiylar davrida rivojlandi, ammo birinchi galda mug‘ullar tazyiqi bilan shahar o‘z mavqeidan pastlab bordi, inqirozga yuz tutdi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Густерин П. В. Города Арабского Востока. – Москва: Восток-Запад, 2007. – С. 15.
2. Hatib Bag‘dodiy. Tarixi Bag‘dod. – Qohira: 1-tom. 2016. – B. 70.
3. Ковтунович О., Ходжаш С. Багдад. – Москва: Искусство, 1971. – С. 7.
4. Al-Tabari, M.J., 1984. Tarikh al-Tabari. Vol. 3. It is Tehran: Asatir Press.– P. 68.
5. Dehkhoda Dictionary Encyclopedia - Loghat Nameh Dehkhoda (“Volume 50”) – Tehran: 1958. – P. 55.
6. Fishbein, Michael, ed. [The History of al-Tabarī, Volume XXXI: The War between Brothers, The Caliphate of Muhammad al-Amin, A.D. \(809–813\)/A.H. – London: 1992. – P. 193.](#)
7. Ibn Abi Usaybia, Uyun al Anba fi Tabaqat. – Beirut: 1990. – P. 35.
8. Багдад, город // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона : в 86 т. (82 т. и 4 доп.). – Санкт-Петербург: 1907. – С. 15.

<sup>22</sup> Багдад, город // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона : в 86 т. (82 т. и 4 доп.). – Санкт-Петербург: 1907. – С. 15.